

**MILLIY ISTIQLOL G'OYASI VA MA'NAVIYAT  
ASOSLARI**

**REFERAT**

**BAJARDI:** \_\_\_\_\_

**TEKSHIRDI:** \_\_\_\_\_

**TOSHKENT – 2006**

## OILADA FARZAND TARBIYASI

### Avlodni tarbiyalash — insoniyat xizmati

Inson aslida baxt va ezbilik uchun dunyoga keladi, shu orzu-umid bilan yashaydi. Lekin bu bilan ish bitmaydi, u shu niyatiga yetishi uchun intilishi, g'ayrat ko'rsatishi, yaxshilik ko'rishi uchun yaxshilik qilishi lozim. Insonning shakllanishida, hayotda o'z o'rnini topishida, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo'lishida, yuksak axloq-odob qoidalarini o'zida mu-jassam etishida oila asosiy o'rinni egallaydi. Oila shunday ma-konki, unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi shaxs shakl-lanadi, etnik madaniyat, urf-odatlar, axloqiy-milliy qadriyat-lar saqlanadi va rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgi-lovchi iqtisodiy va ma'naviy hayot poydevori qo'yiladi va mu-stahkamlanadi. Oila anil va totuv bo'lsa, jamiyatda tinchlik va,, hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi.

Oilada tarbiyaning negizlariga asos solinadi. U bolada shakllanishi lozim bo'lgan barcha insoniy mimosabat va fazi-latlarni tarbiyalovchi hayot maktabi hisoblanadi.

O'zbek xalqi tabiatan bolajon xalq. Bolaga nisbatan bag'ri kenglik, mehridaryolik, o'ta fidoyilik xalqimizga xos xususiyat-lardir. Shu boisdan ota-onalarirniz farzandlarning puxta bilim olishlari, qiziqishlari bo'yicha kasb-hunar egallashlari, axloq-odob qoidakrini mukamma! bilishlari va ularga amal qilishlari

uchun zarur imkoniyatlarni yaratadiiar. Chunki oilada bolani to'g'ri tarbiyalash — mustahkam poydevorli jamiyat barpo etilishining garovi. Bola tarbiyasi keng qamrovli, uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ushbu jarayon turmush quradigan yigit va qizning bir-biriga har tomonlama munosibligidan boshlanadi. Bo'lajak ota-onaning sog'-salomatligi, nasl-nasabi, dunyoqarashi, axloq-odobi, moddiy va ma'naviy darajasining mosligi, turmush qurishga har tomonlama tayyorligi farzand ko'rish va uning tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

Oila ahilligi, barkamol farzandlar jamiyat mustahkamligi va ma'naviy yetukligining garovidir.

## BOLA — BOSHIDAN

Oilada farzand tarbiyasi u tug'ilmasdan boshlanmog'i zarur. Homilador ayolning kayfiyati yaxshi, asablari sokin, iste'mol qiladigan taomlari bola organizmi uchun foydali bo'imog'i zarur. O'z vaqtida yumushlarini bajarib, dam olib, sayr qilib, ovqatlanib, tug'ilajak bola taqdirini o'ylash uning vazifasi hisoblanadi. Er-xotin, oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi sog'lom ma'naviy muhit, xushmuomalalik, xursandchilik bo-laning bexavotir, sog'lom tug'ilishiga garov bo'jadi.

Ba'zan oilada uchraydigan er-xotin, qaynona-kelin va bo-shqalar o'rtasidagi bir-biriga nisbatan hurmatsizlik, o'zaro nizo, urush-janjallar, homilador ayolni avaylab-asrash o'rni-ga og'ir mehnatga majburlash, xo'rlash, hatto unga qo'l ko'tarish bolaning kasalmand, nogiron, jizzaki bo'lib tug'ilishiga olib keladi. Ota-onadagi eng yaxshi xususiyatlar ham yomon xususiyatlarga qo'shihb irsiy yo'l bilan bolaga o'tishi tabhydir. Hatto tug'ilмаган bolada ona qornidayoq ota-onaga nisbatan mehr hissi shakllana boshlaydi. Ba'zan arning bola dunyoga kelmasdan «Agar farzandimiz qiz bo'lsa, to'g'ri otangning uyiga ketasan» yoki «Tug'uruqxonaga yo'qlab borishimni kutmagin» kabi xarxashalar bilan janjal ko'tarishi, albatta, bo'lajak ona uchun ham, bola uchun ham zararli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shuning uchun donishmandlarning bolani u tug'iimasdan oldin tarbiyalash xususidagi o'gitlariga anial qilmoq zarur. Bir kishi yangi tug'ilgan chaqaloqni donishmand kishi oldiga olib kelib: «Taqsir, bolamga qachondan tarbiya bera boshlay?» — debdi. «Bolang dunyoga kelganiga necha kun bo'ldi?» — debdi donishmand. «Ikki oy, taqsir», debdi ota. «Attang, siz ancha kech qolibsiz, tarbiyani onasining qornidaligidan boshlappingiz kerak edi», — debdi donishmand.

## **OILADA BOLA TARBIYASI BILAN BOG'LIQ RASM-RUSMLAR, URF-ODATLAR**

O'zbek oilalarida farzand dunyoga kelishi bilan bog'liq ma-rosimlar va rasm-rusmlar mavjud bo'lub, ularning har biri yaxshi niyatlar bilan amalga oshiriladi. Jumladan, chaqaloqqa ism qo'yish, kichik va katta chilla saqlash, beshikka belash, soch, tirnoq ofish, birinchi qadam, ilk bor gapira boshlash, tish chiqishi, yoshiga to'lishi, o'g'il bolalarni xatna qilish, birinchi muchal, mo'ylabi sabza urishi munosabati bilan bog'liq oilaviy tantanalarining o'tkazilishida ramziy ma'no bor. Sunday marosim, rasm-rusmlar bola quvonchiga quvonch qo'shadi, uning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Oilada chaqaloqning sog'lom o'sishi uchun muhim bo'lgan davri chilla davridir. Bu muddat kichik (20 kun) va katta (40 kun) chilla davrlariga bo'linadi. Bu davr yosh ona va bolani har tornonlama asrashni taqozo etadi. Chilla davri uchun xarakterli xususiyatlar: ona va bolani yolg'iz qoldirmaslik, ular yashayot-gan xonaga hech kimni kiritmaslik (gigiyenik tomondan ham mumkin cmas), chaqalojni tuzli, tuproqli suvda tez-tez cho'mil-tirish (badandagi ortiqcha tuklar to'kiladi), onaga yumush qildirmaslik, quvvat beradigan, sut ko'paytiradigan taomiarni iste'mol .qilish, tunda tashqariga olib chiqmaslik va bezovta qilmaslik (ona va bola ma'lum bir sharpadan seskanishi, qo'rqli shaxs qilmaslik, natijada sut kamayishi yoki xastalanishi mumkin), bolani qorong'ulikda saqlamaslik, ona-bola asabini buzmaslik, qo'rqiitmaslik, ularning salomatligini ta'minlash garovidir.

Sharqda qadimdan emizikli ayol taomnomasiga alohida ahamiyat berib kelangan. Yosh bo'shangan ona sut keltiruv-chi kuchli taomlar bilan ovqatlanishi, sutni buzmaslik uchun piyoz, sarimsoq, garmdori, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar iste'mol qilmasligi zarur. Bular bola tanasi uchun og'udir.

Alia o'zbek xalqining qadimiy, muhim tarbiyaviy xarakterga ega qo'shiq turlaridan hisoblanadi. Ona allasidan bebahra bo'limgan bola qalbida ota-onaga, Vatanga nisbatan mehr-muhabbat hissi bo'lishi qiyin. Alia aytmagan yoki alia eshitib katta bo'limgan qiz bola bo'lmasa kerak.